

YANGI O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUVOZANATNI SAQLASHDA QADRIYATLARDAN FOYDALANISH USULLARI

To'rayeva Laylo Shavkat qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

I kurs magistranti

laylotorayeva8@gmail.com

Annontatsiya: Mazkur ilmiy ishda Yangi O'zbekistonda ekologik muvozanatni saqlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish usullari har tomonlama tahlil qilinadi. Ekologik muvozanatni ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, u barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ekologik qadriyatlarning ahamiyati, ekologik madaniyatni shakllantirishdagi roli va ularni amaliyotda qo'llash usullari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston xalqining tabiatga bo'lgan munosabati, qadimiy an'analar va zamonaviy ekologik muammolar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Shu bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosati, qonuniy asoslar va ekologik tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, maqolada jamoatchilik faolligini oshirish, yosh avlodning ekologik ongini yuksaltirish, mahalliy an'anaviy bilimlar va qadriyatlarni ekologik muammolarni hal etishda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi. Ekologik muvozanatni saqlashda innovatsion texnologiyalar va ekologik ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan qadriyatlarning o'rni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritib beriladi. Ushbu tadqiqot ekologik muammolarni hal etishda milliy qadriyatlarning o'rnini aniqlash va ularning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha aniq tavsiyalarni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, Globallashuv, suv, qadriyatlar, tabiiy suv resurslari, orolni qutqarish, global iqlim o'zgarishi.

Ekologiya bilan bog'liq muammolar alloqacholar global xarakterdagi muammolardan birga aylanib ulgurgan. Ayniqsa, insoniyat tarixini industrial va undan keyingi davrlarida ishlab chiqarish ko'lamlarini mo'tasil o'sib borishi, dunyo aholisini motasil demografik o'sishi va turmush ehtiyojlarini tobora rangbaranglashishi hamda inson tomonidan tabiat gonunlarini qo'pol ravishda buzilishi va ekologiya bilan bog'liq qadriyatlarni qadrsizlanishi kabilar insoniyatni ekologik tanglik, fojialar qarshisiga ro'baru qildi Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta'minlash, ekologik tahdidlarni oldini olish, Yashil iqtisodiyotni rivollantirish, jamiyat kishilarida ona tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, shaydollik, ma'naviy mas'uliyat tuyg'ularini yanada kuchaytirish, uni uzliksizligini, bardavomligini ta'minlab borishda bir tomondan tarian shakliangan va davr sinovlaridan otgan mumtoz va boy milliy va umumbashariy qadriyatlardan foydalanish usuliariga etibor garatish, tabiat muhofazasiga

oid qadriyatini jamiyat kishilariga va yosh avlodga keng targ'ib va tashiq etish, inson-jamiyat tabiat ortasida sog'lom muvozanat erishish yanada dolzarb, hayot-mamot masalasidir. Tabiat bilan munosabatlarda ham yuksak ma'naviyat va ma'rifatga tayanib ish tutadigan chiqindisiz, qayta tiklanadigan energiya manbalari hamda bu boradagi innovasion texnologiyalarni o'z qadriyatga aylantirgan halq g'olibdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Biz iste'mol qiladigan mahsulotlar, biz nafas oladigan havo, biz ichadigan suv, biz yashaydigan sayyoraga hayot bag'ishlovchi iqlim - barchasi tabiat tufayli*. Shu bois tabiatga g'amxo'rlik qilishimiz, u haqida qayg'urishimiz umumtaraqqiyoti nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega.

Shunday muammolardan biri suv muammosi hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasi G'arbda Kasbiy dengizi, Sharqda Xitoy, Shimolda Rossiya, Janubda Afg'oniston va Eron bilan chegaradosh. Markaziy Osiyoning tabiiy-iqlimiy, geografik, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xususiyatlarini e'tiborga olib, uni shu mintaqada sifatida ta'riflash mumkin. Tabiiy suv resurslari markaziy Osiyoda muhim geografik va geostrategik ahamiyatga ega omil hisoblanadi. Markaziy Osiyoda eng yirik vatan chegaraviy daryolar Amudaryova Sirdaryo yiliga 78 kub.km suv tashiydi, Chuvash Talas daryolari (Qirg'iziston, Qozog'iston), Tarim daryosi (Tojikiston, Qirg'iziston) Ili daryosi (Xitoy, Qozog'iston), Irtysh daryosi (Xitoy, Qozog'iston, Rossiya), Ural, Ishim, Tobol daryolari (Qozog'iston, Rossiya) mintaqaga ma'lum miqdorda suv yetkazib turadi.¹⁷

Hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlarining eng katta muammolaridan biri suv muammosi bo'lib kelmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev OQXJ ning sammitida nutq so'zlab: "Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi tobora chuqurlashib boraveradi", dedilar.

"Markaziy Osiyoda suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish muammolari uzoq muddatga mo'ljallagan yangi qarorlari ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda", dedi O'zbekiston prezidenti Dushanbeda bo'lib o'tgan Orolni qutqarish jamg'armasi sammitida.

Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi o'tkir va muqarrar tuz oldi hamda bundan buyon u tobora chuqurlashib boraveradi. Bu haqda O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Dushanbeda o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'asischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisida aytdi.¹⁸

Ekspertlarning hisob-kitobiga ko'ra, markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib suv resurslari ega bo'lgan ehtiyoj uch barobar oshadi, vaqt o'tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11% ga yetishi mumkin.

"Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, hozirning o'zidayoq mintaqada davlatlarning suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard dollargacha yo'qotmoqda"- dedi davlat rahbari.

¹⁷ Sarvarjon G'ofurov Markaziy Osiyo: Mintaqaviy Tahdidlar, Integratsiya, Zamonaviy Siyosiy Jarayonlar. 6-bet Merit Print nashtiriyoti

¹⁸ Gazeta.uz sayti internet manbalari asosida

“Tuzilmamizning o‘rni va ahamiyati global iqlim o‘zgarishlar oqibatida vujudga kelayotgan ayni xavf va tahdidlar sharoitida yanada ortib bormoqda. Muzliklarning erishi, tabiiy ofatlar, shuningdek, shiddatli demografik o‘shish, urbanizatsiya jarayonlari va sanoatlashuv natijasida yuzga kelayotgan texnogen omillar tufayli mintaqada suv va ekologiya bilan bog‘liq vaziyat yomonlashib borayotgani va uning oqibatlari alohida xavotir uyg‘otmoqda”, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident O‘zbekiston Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va institutsional mexanizmlarini modernizatsiya qilish tarafdori ekanini ma‘lum qildi. “Jamg‘armani rivojlantirish va isloh etish jarayonlarini tarmoqlar aro tamoyil asosida, ya‘ni zamonaviy ekologik tahdidlarni hisobga olgan holda; SUV – energetika – oziq-ovqat” tartibidagi kompleks yondashuvlar negizida amalga oshirish muhimdir“, dedi davlat rahbari.

U asosiy dasturiy hujjatlardagi qoidalarda va loyihalarni bajarish borasidagi aniq oldingi siljishni ko‘rsatadigan natijalarda farqlar borligini ta‘kidladi.

Sammitda Qozog‘izton prezidenti Qosim –Jomart Toqayev, Turkmaniston prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Qirg‘izton Vazirlar Mahkamasi raisining birinchi o‘rinbosari Adilbek Qosimaliyev va BMT Bosh kotibining maxsus vakili – BMT ning Preventiv diplomatiya bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze qatnashdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gazeta.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev OQXJ sammitdagi nutqi.
2. Sarvarjon G‘afurov-Markaziy Osiyo: Mintaqaviy Tahdidlar, Integratsiya, Zamonaviy Siyosiy Jarayonlar.
3. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti. Ijtimoiy Fanlar fakulteti.
4. Ijtimoiy – Gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma‘naviyat asoslari) yo‘nalishi 1-kurs magistri To‘rayeva Laylo Shavkat qizi.